O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

2026-yil 25-26-sentabr

(2-qism)

JIZZAX-2026

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2026-yil 25-26-sentabr. 315-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., т.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD) dots., Norbekova B.Sh. p.f.f.d.(PhD) dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

To‘raqulov U.X.
ped.fan.fals.dokt.(Phd), dotsent. O‘zMU JF
Maratova V.O.
Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi. O‘zMU JF
Xolbutaeva S.O.
A.I.Gersen 2-kurs magistri.
To‘raqulova G.U.
O‘zMU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning psixologik jihatlari nazariy-metodologik tahlil qilingan. Kasbiy tayyorgarlikning motivatsion, kognitiv, emotsional-irodaviy va operatsional komponentlari, kasbiy yo'nalganlikning shakllanish bosqichlari, "pedagogik shok" hodisasi hamda kasbiy adaptatsiya jarayonidagi psixologik to'siqlar ko'rib chiqilgan. Xorij va mahalliy tadqiqotchilarning ishlari asosida bo'lajak pedagoglarda kasbiy-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishning amaliy yo'nalishlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, pedagogik faoliyat, kasbiy yo'nalganlik, kasbiy identifikatsiya, pedagogik shok, refleksiya, kasbiy adaptatsiya, pedagogik qobiliyatlar.

Аннотация: В данной статье представлен теоретико-методологический анализ психологических аспектов подготовки будущих учителей к профессионально-педагогической деятельности. Рассмотрены мотивационный, когнитивный, эмоционально-волевой и операциональный компоненты профессиональной готовности, этапы формирования профессиональной направленности, явление «педагогического шока», а также психологические барьеры процесса профессиональной адаптации.

Ключевые слова: профессиональная готовность, педагогическая деятельность, профессиональная направленность, профессиональная идентификация, педагогический шок, рефлексия, профессиональная адаптация.

Annotation: This article presents a theoretical and methodological analysis of the psychological aspects of preparing future teachers for professional pedagogical activity. The motivational, cognitive, emotional-volitional and operational components of professional readiness, the stages of forming professional orientation, the phenomenon of "pedagogical shock", and the psychological barriers of professional adaptation are examined.

Keywords: professional readiness, pedagogical activity, professional orientation, professional identification, pedagogical shock, reflection, professional adaptation.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimini isloh qilish sharoitida o'qituvchi shaxsiga, uning kasbiy mahoratiga va psixologik jihatdan tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Ta'lim sifatining yuqori bo'lishi, avvalambor, pedagog kadrlarning nafaqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga, balki barqaror kasbiy motivatsiya, emotsional barqarorlik va kasbiy o'ziga xoslikka ega bo'lishiga bog'liq. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik jihatlarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish pedagogik va psixologik fanlarning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida talabalar nazariy jihatdan yetarli tayyorgarlikka ega bo'lsalar-da, real pedagogik faoliyatga kirishganda ko'pincha psixologik qiyinchiliklarga ishonchsizlik, hayajon, kasbiy adaptatsiya stressi va "pedagogik shok" holatiga duch kelishadi. Bu holat kadrlar barqarorligiga, ularning kasbdan qoniqish darajasiga va ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

Pedagogik faoliyatga kasbiy-psixologik tayyorgarlik muammosi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli jihatlardan o'rganilgan. Xususan, kasbiy mahoratni oshirishning ijtimoiy-psixologik omillari muammosi bo'yicha L.M. Abolin, A.K. Markova, L.M. Mitina, I.I. Ridanova, E. Gelgorn, V. Marishuk, Ye. Milerian, O. Sirotin kabi xorijlik olimlar, shuningdek E. G'oziyev, V. Tokaryeva, R.Z. Gaynutdinov, J. Zaynobiddinov, A. Mashkurov, A.M. Jabborov kabi mahalliy tadqiqotchilarning ishlarida ma'lum yo'nalishlar bo'yicha tahlillar amalga oshirilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonining nazariy va amaliy jihatlari, jumladan ularning nazariy, psixologik va amaliy tayyorgarlik darajalarini aniqlash mezonlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda talaba-respondentlar bilan o'tkazilgan so'rovnoma va test natijalari asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasi hali qoniqarli emasligi qayd etilgan [1].

Bundan tashqari, hozirgi zamon pedagogining kasbiy mavqeyi, uning shaxsiy-kasbiy sifatlarining shakllanish jarayoni va bu boradagi ijtimoiy talablarning ortib borishi masalalari alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan [2]. Shuningdek, oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish, uning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish va zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish yo'nalishidagi tadqiqotlar ham dolzarbligini saqlab qolmoqda [3].

Mavzuning o'zbek psixologiya-pedagogika fanidagi o'rganilganlik darajasiga to'xtaladigan bo'lsak, milliy psixologiya maktabining asoschilaridan biri E. G'oziyev o'zining "Umumiy psixologiya" va "Pedagogik psixologiya" nomli fundamental ishlarida shaxs faoliyati, uning kasbiy shakllanish qonuniyatlari hamda ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik asoslarini keng yoritib bergan [8]. Uning tadqiqotlarida tafakkurning emotsional kechinmalar bilan bog'liqligi, shaxsning kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorligini shakllantiruvchi omillar tizimi asoslab berilgan.

O'qituvchi shaxsining kasbiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlari muammosi A.M. Jabborovning doktorlik dissertatsiyasida (1999) chuqur tadqiq

etilgan bo'lib, unda o'zbek maktabi o'qituvchisiga xos milliy-psixologik jihatlar ilmiy asoslangan [9]. Talaba shaxsining ma'naviy-axloqiy rivojlanishi va uning kasbiy shakllanishdagi o'rni V.A. Tokaryevaning doktorlik dissertatsiyasi avtoreferatida (1991) fenomenologik, tipologik va qonuniyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilingan [9]. Shuningdek, Z.T. Nishonovaning "Oliy maktab psixologiyasi" o'quv qo'llanmasida (2003) talabalarning oliy ta'lim jarayonidagi kasbiy-psixologik rivojlanish bosqichlari batafsil yoritilgan [9], D.G. Muhamedova esa ta'lim menejerini innovatsion faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini o'rgangan [9].

Pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy-nazariy, metodologik va amaliy yo'nalishlari, jumladan o'qituvchining kasbiy-shaxsiy fazilatlari muammosi bo'yicha M. Ochilov, K. Zaripov, J.G. Yo'ldoshev kabi mahalliy olimlarning ishlari ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular xorijiy tadqiqotchilar (Yu.P. Azarov, F.N. Gonobolin, N.V. Kuzmina, V.A. Slastyonin, V.A. Kan-Kalik va boshqalar) bilan qiyosiy tahlilda mahalliy ta'lim tizimi xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik mahorat nazariyasini boyitganlar [2]. Bu ishlarning barchasi bo'lajak o'qituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlashning milliy ta'lim tizimiga xos psixologik-pedagogik jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda nazariy tahlil, tizimli yondashuv, mavjud ilmiy adabiyotlarni qiyosiy-tahliliy o'rganish, shuningdek umumlashtirish va sintez qilish metodlaridan foydalanildi. Kasbiy tayyorgarlik tushunchasi tizimli yondashuv nuqtai nazaridan, ya'ni uning motivatsion, kognitiv, emotsional-irodaviy va operatsional komponentlari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar

1. Kasbiy tayyorgarlikning psixologik tuzilishi

Kasbiy-psixologik tayyorgarlik - shaxsning kelgusi pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qaratilgan barqaror psixik holati va sifatlar majmui bo'lib, tadqiqotlar tahlili quyidagi tarkibiy qismlarni ajratish imkonini beradi:

motivatsion komponent - kasbga nisbatan ichki va tashqi motivlarning shakllanganlik darajasi, pedagogik faoliyatga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj;

kognitiv komponent - psixologik-pedagogik bilimlar tizimi, o'quvchi shaxsini va pedagogik vaziyatlarni tahlil qila olish qobiliyati;

emotsional-irodaviy komponent - stressga chidamlilik, o'z-o'zini boshqarish, bardoshlilik, kasbiy vaziyatlarda emotsional barqarorlikni saqlay olish;

operatsional (faoliyat) komponenti - pedagogik ko'nikma va malakalar, muloqot texnikasi, amaliy faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Ushbu komponentlarning har biri alohida emas, balki o'zaro uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi va ularning bir yo'nalishda rivojlanishi kasbiy tayyorgarlikning yaxlit tizim sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

2. Kasbiy yo'nalganlik va kasbiy identifikatsiyaning shakllanish bosqichlari

Bo'lajak o'qituvchida kasbiy yo'nalganlik izchil ravishda quyidagi bosqichlarda rivojlanadi:

1) kasbga nisbatan dastlabki qiziqishning uyg'onishi va kasb haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi;

2) kasbiy identifikatsiya talabaning o'zini bo'lajak o'qituvchi sifatida his qilishi, kasbiy "Men" obrazining shakllanishi;

3) kasbiy pozitsiyaning mustahkamlanishi kasbiy qadriyatlar tizimining barqarorlashuvi va shaxsiy-kasbiy sifatlarning integratsiyalashuvi.

Bu jarayon oliy ta'lim muassasasida nazariy ta'lim bilan bir qatorda pedagogik amaliyot, treninglar va refleksiv mashg'ulotlar orqali samarali kechadi.

3. Kasbiy tayyorgarlikdagi psixologik to'siqlar

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy faoliyatning dastlabki bosqichida bir qator psixologik qiyinchiliklarga duch kelishadi:

kasbiy adaptatsiya davridagi stress holati - birinchi mustaqil dars berish jarayonidagi hayajon va ishonchsizlik;

nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovut - universitetda o'zlashtirilgan bilimlarni real sinf sharoitida qo'llashdagi qiyinchiliklar;

"pedagogik shok" hodisasi - kasbiy faoliyatning boshlang'ich bosqichida yosh mutaxassisning kutgan tasavvurlari bilan real pedagogik vaziyat o'rtasidagi ziddiyatdan kelib chiqadigan psixologik holat;

kasbiy "Men"ning yetarlicha shakllanmaganligi - o'ziga ishonchning yetishmasligi va kasbiy o'zini o'zi baholashning beqarorligi.

Yosh mutaxassislarning kasbiy faoliyatga psixologik tayyorgarligi masalasi, jumladan turli soha bo'lajak mutaxassislarining kasbiy-shaxsiy sifatlarining shakllanish darajasini baholash mezonlari zamonaviy tadqiqotlarda alohida o'rin egallamoqda [4].

4. Kasbiy-psixologik tayyorgarlikni takomillashtirish yo'nalishlari

O'tkazilgan tahlil asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-psixologik tayyorgarlikni oshirishning quyidagi amaliy yo'nalishlari taklif etiladi:

pedagogik amaliyotni kengaytirish va uni real sinf sharoitiga yaqinlashtirish orqali talabalarda kasbiy vaziyatlarga moslashish tajribasini shakllantirish;

muloqot va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi treninglar hamda rolli o'yinlarni ta'lim jarayoniga tizimli tatbiq etish;

talabalarda kasbiy refleksiya ko'nikmalarini shakllantiruvchi maxsus mashqlar va topshiriqlar tizimini joriy qilish;

oliy ta'lim muassasalarida mentorlik (murabbiylik) va psixologik xizmat tizimini kuchaytirish, talabalarga individual psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish;

o'quv rejalariga kasbiy-psixologik tayyorgarlikka yo'naltirilgan maxsus modullarni kiritish, bunda ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish orqali talabalarning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish [3].

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash murakkab, ko'p bosqichli va uzluksiz psixologik-pedagogik jarayon bo'lib, u shaxsning motivatsion, kognitiv, emotsional-irodaviy va operatsional sifatlarining uyg'un rivojlanishini talab etadi. Kasbiy tayyorgarlikning yuqori darajasiga erishish uchun oliy ta'lim jarayonida nazariy bilim berish bilan bir qatorda talabalarning amaliy tajribasini boyitish, ularda kasbiy refleksiya va o'z-o'zini boshqarish

ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish zarur. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha olib boriladigan keyingi empirik tadqiqotlar bo'lajak pedagoglarning kasbiy-psixologik tayyorgarligini oshirishning yangi samarali usullarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonining xususiyatlari // ResearchGate, 2021. URL: https://www.researchgate.net/publication/353802091_Bulazak_ukituvcilarni_iztimoij-pedagogik_faoliatga_tajerlas_zaraenining_hususiatlari

2. Hozirgi zamon pedagogini kasbiy shakllantirish (o'quv-uslubiy qo'llanma). Ziyonet elektron kutubxonasi. URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/473012/5b715b580648e.pdf

3. O'quv jarayonini texnologik tashkil etish xususiyatlari // ResearchGate, 2021. URL: https://www.researchgate.net/publication/367854151_Ukuv_zaraenini_tehnologik_taskil_etis_hususiatlari

4. Salimova S.F. Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy kompetensiyalari shakllanganlik darajasini baholashning o'ziga xos jihatlari // TIIAME ilmiy jurnali. URL: https://staff.tiiame.uz/storage/users/786/articles/WEklWhSJolmfHqOlFJoIrcz0ImOQiNRwc8egUB5r.pdf

5. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy-shaxsiy sifatlari va professional kompetentligini rivojlantirish muammolari bo'yicha tadqiqot avtoreferati // O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Ilmiy kengash. URL: https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2018/02/Абдуллаева-Шоира-Хомидовна.pdf

6. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy таълим trayektoriyasini shakllantirish masalalari bo'yicha monografiya // O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, ilmiy nashr. URL: https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/3739/19571/65b5caee85d30___1%20монография%20креатилик%20(2).pdf

7. Didaktik ta'minot va kasbiy-pedagogik tayyorgarlik: modul dasturi // O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi. URL: https://lib.bimm.uz/items/download/191

8. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. URL: https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/psixologiya/Umumiy%20psixologiya.%201-kitob%20(E.G'oziyev).pdf

9. Jabborov A.M. O'zbek maktabi o'qituvchisining psixologik va etnopsixologik xususiyatlari: doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 1999; Tokaryeva V.A. Психология нравственного развития личности студента: doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 1991; Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent: TDPU, 2003; Muhamedova D.G. Ta'lim menejerini innovatsion faoliyatga tayyorlash (tadqiqot materiallari) // O'zbekiston Milliy

universiteti huzuridagi Ilmiy kengash materiallari. URL: https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2018/02/Абдуллаева-Шоира-Хомидовна.pdf

10. To‘raqulov U., Aripova D; Noto‘liq oilada voyaga yetayotgan o‘smirlarning psixologik muammolarini hal qilish usullari. Journal of International science networks. 2025.

11. To‘raqulov U., Shokirov A. Oilaviy munosabatlarning bola psixik taraqqiyoriga ta’siri. Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. 2024-yil 18-19-oktabr.

12. To‘raqulov U., Shokirov A. Ko‘p bolali oilalarda shaxslararo munosabatlarning bola psixik taraqqiyotiga ta’sirini o‘rganish zarurati. Yangi O‘zbekiston; fan, ta’lim va innovatsiya. 2024-yil 9-10 aprel.

O‘SMIRLARDA ANTIBIOTIKLARDAN OQILONA FOYDALANISH HAQIDAGI KROSS-MADANIY TASAVVURLAR: PSIXOLOGIK OMILLAR VA SOG‘LIQ SAVODXONLIGI

Osiyo xalqaro universiteti
Ibodullayeva.N.O`.Tel:+998956220
E-mail:@nodiraibodullayeva61@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda o‘smirlarning antibiotiklardan oqilona foydalanish haqidagi tasavvurlari, ushbu tasavvurlarni shakllantiruvchi psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar hamda sog‘liq savodxonligining mazkur jarayondagi o‘rni tahlil qilinadi. Antibiotiklardan noto‘g‘ri foydalanish bugungi kunda nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, o‘smirlik davrida sog‘liq bilan bog‘liq mustaqil qarorlarning shakllanishi, internet va ijtimoiy tarmoqlardan tibbiy axborot olishning kengayishi, oila va tengdoshlar ta’sirining kuchayishi antibiotiklardan foydalanish haqidagi qarashlarga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqotda kross-madaniy yondashuv asosida turli madaniy muhitlarda yashovchi o‘smirlarning antibiotiklar haqidagi bilimlari, munosabatlari, xavfni idrok etishi va xulq-atvoridagi farqlarni o‘rganish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, sog‘liq savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan ta’limiy va psixologik yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, antibiotiklar, oqilona foydalanish, sog‘liq savodxonligi, kross-madaniy tadqiqot, psixologik omillar, sog‘liq xulq-atvori, tibbiy axborot, antibiotiklarga chidamlilik, profilaktika.

Antibiotiklardan oqilona foydalanish zamonaviy tibbiyot va jamoat salomatligining muhim masalalaridan biridir. Antibiotiklar bakterial infeksiyalarni davolashda muhim vosita bo‘lsa-da, ularni noto‘g‘ri, keraksiz yoki shifokor tavsiyasisiz qo‘llash individual salomatlikka va kengroq miqyosda antibiotiklarga chidamlilik muammosining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur muammo o‘smirlar orasida alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Chunki o‘smirlik davrida shaxsning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi, sog‘liq bilan bog‘liq xulq-atvor shakllanadi va tashqi ijtimoiy muhitning ta’siri kuchayadi. O‘smir antibiotikni qabul qilish yoki qilmaslik haqidagi qarorni faqat tibbiy bilimlariga asoslanib emas, balki ota-onasi, do‘stlari, internetdagi ma’lumotlar,